

PSIXOLOG MUTAXASSISINING PSIXODIAGNOSTIK FAOLIYATIGA QO'YILADIGAN ETIKAVIY TALABLAR.

Usmanov Esanbay Shirmatovich.

*Angren Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası,dotsent
v.b.psixologiya fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixodiagnostik kasbiy faoliyatining etikaviy talablari, psixodiagnostika mutaxassisi ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar, kasbiy me'yorlarining o'ziga xosligi hamda psixodiagnostika tamoyillari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *psixodiagnostika, psixodiagnostika tamoyillari, etika, axloq, ma'naviyat, psixoterapiya, psixokorreksiya, psixologik maslahat.*

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi har tomonlama yetuk va intellektual salohiyati baland avlodni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq. Shu bois ham O'zbekiston uchun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish asosiy maqsad qilib olindi. Ta'limdagi yangilanishlar ta'lim jarayoni orqali o'quvchini o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Psixodiagnostika fani esa aynan shaxsni har tomonlama, ya'ni uning kognitiv sohasi, xulq-atvori, individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning metodologiyasi, nazariyasi, metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda shaxs rivojlanishini ilmiy asosda diagnostika qilish, prognozlash, aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan bo'g'liq malaka va ko'nikmalar hosil bo'lishi uchun asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Psixodiagnostik faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassis oldiga quyidagicha etikaviy talablar qo'yiladi:

1. Psixodiagnostikaning metodik vositalarini bilish.
2. Axloq qoidalariga amal qilish.
3. Zarur kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo'lish.
4. Psixologik muammoni qo'ya bilish.
5. Sinaluvchilardan zarur ma'lumotlarni olish.
6. Olingan ma'lumotlarni sinaluvchi qiziqishlariga mos tarzda qo'llay bilish.

Psixodiagnostika mutaxassisi ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar:

- Empatiya qobiliyati
- O'z-o'zini nazorat qilish
- Kasbiy odoblilik(takt)
- Mas'uliyatni his qilish
- Refleksiya qobiliyati

Psixologning kasbiy ish faoliyatining ajralmas va muhim jihati bu-psixodiagnostika qilish sanaladi. Bunday faoliyatda psixolog shaxsining ma'naviy axloqiy tomoniga katta e'tibor beriladi. "Axloq" va "ma'naviyat" tushunchalari shunday me'yor va prinsiplarni o'z ichiga oladiki, ular individlarning o'zaro va jamiyat o'rtasida qiziqishlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi. Psixodiagnostikadan o'rinli foydalana olish-o'ta muhim, mas'uliyatli ish hisoblanadi. Bu ish o'ziga xos maxsus ma'lumot, kasbiy mahorat talab qiladi. Shu bilan bog'liq ravishda psixodiagnostika va psixodiagnost shaxsiga qator ijtimoiy etik talablar qo'yiladi. Bularga: psixodiagnostika natijalarini sir saqlash, psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligini, o'rganilayotgan odamga ziyon yetkazmaslik, ular uchun tadqiqot natijalarining oshkoraligi, xulosalarning ob'ektivligi va taklif etilayotgan amaliy tavsiyalarning samaradorligi kabilar kiradi. Bu talablarni psixodiagnostika tamoyillari ko'rinishida qarab chiqamiz.

Psixodiagnostika natijalarini sir saqlash tamoyili - bu o'rganilayotgan odam shaxsan ruxsat bermaguncha uning natijalarini oshkor qilmaslikni taqozo etadi. Psixodiagnostika ilmiy maqsadlarda, eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida o'tkazilayotgan holatlar bundan mustasno, lekin bu holatlarda ham, odatda

natijalarni e'lon qilishda sinaluvchining aniq familiyasi va ismini bermaslik tavsiya etiladi.

Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi tamoyili - ularni eng kamida validlik va ishonchlilik talablariga javob berishini taqozo etadi, ya'ni ular ishonish mumkin bo'lgan natijalarni berishi kerak.

Ziyon yetkazmaslik tamoyili-psixodiagnostika natijalarini har qanday holatlarda tadqiq etilgan odamga ziyon yetkazmasligi kerakligini nazarda tutadi. Agar psixodiagnostika tanlov (konkurs) asosida tanlab olish maqsadida yoki odamni ishga qabul qilishda o'tkazilayotgan bo'lsa, unda mazkur tamoyil psixodiagnostika natijalari sinaluvchi uchun oshkora bo'lishi tamoyili bilan birgalikda qo'llaniladi. Bunda sinaluvchi, undan nimani va qanday o'rganilishligini, testdan o'tkazish, uni tadqiq etishning natijasi qandayligi, shuningdek, bu ma'lumotlar, uning taqdirini (muammosini) hal qilishda kim tomonidan va qanday tarzda foydalanishligi kabilar haqida ma'lumotni talab qilishi mumkin.

Xulosalarning ob'ektivligi tamoyili-testlashtirish natijalaridan ularning ilmiy asoslangan bo'lishligini talab qiladi. Ya'ni psixodiagnostika xulosalari test o'tkazayotgan yoki uning natijalaridan foydalanadigan shaxsning sub'ektiv ustanovkalariga mutlaqo bog'liq bo'lmasligi va u tomonidan belgilangan bo'lmay, balki validli va ishonchli metodikalarni qo'llagan holda o'tkazilgan testlashtirish natijalariga asoslangan bo'lishi shart.

Taklif etiladigan tavsiyalarning samaradorligi tamoyili bunday tavsiyalar kimga berilayotgan bo'lsa, shu odamlar uchun albatta foydali bo'lishi kerak. Testlashtirish natijalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan odam uchun foydasi tegmaydigan yoki qanday oqibatlarga olib kelishi noma'lum bo'lgan amaliy tavsiyalarni berishga ruxsat etilmaydi.

Psixodiagnostika ishlarini amalga oshirishda psixodiagnostikaga qo'yiladigan yuqoridagi talablar bilan bir qatorda u bilan shug'ullanadigan psixodiagnost shaxsiga ham alohida malaka talablari qo'yiladi. Ularning asosiylari: yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega bo'lish, psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash

qoidalarini mukammal bilish, tegishli metodikalardan amalda foydalanish yuzasidan yetarlicha tajribaga ega bo'lish kabilardir.

Har qanday psixodiagnostik metodika o'z-o'zidan yuzaga kelavermaydi. Ular o'zi o'rganayotgan ob'ektga oid qandaydir bir nazariya zaminida yuzaga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellekt tabiati, tuzilishi, ahamiyati va hayotiy namoyon bo'lishi haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari esa, shaxsni ilmiy ta'rifi shaxs tuzilishini tushunish, shu shaxs haqida ob'ektiv mulohaza yuritish mumkin bo'lgan ma'lum bir shaxs nazariyalariga asoslanadi. Har bir psixodiagnostik metodika ayni vaqtda o'zi bog'liq bo'lgan u yoki bu nazariya bilan boyitilgan va chegaralangan bo'ladi. Tegishli nazariyani bilgan holda, shu nazariya doirasida o'rganilayotgan odam haqida, ko'pincha bevosita psixodiagnostika natijalari doirasidan (chegarasidan) kengroq, uzoqni ko'zlagan xulosalar qilishga erishish mumkin. Masalan, ayrim shaxs nazariyalariga ko'ra shaxsning bir xislati boshqa bir xislati bilan yaqindan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun shaxs xislatlaridan birini psixodiagnostika yordamida aniqlash bilan, uning boshqa bir xislatini qay darajada rivojlanganligi haqida ishonchli mulohazalarga kelish mumkin. Lekin, psixodiagnostika metodikasi zaminida yotadigan nazariya ko'pincha uning natijalarini izohlashni cheklashi mumkin. Shunday metodikalardan biri bo'lmish, shaxsni o'rganishga mo'ljallangan Z. Freydning psixoanaliz ta'limotiga asoslangan tematik appersepsiyalashgan test natijalarini faqat shu ta'limot doirasidagina izohlashni va shularga asosan tegishli xulosalarga kelishni talab qiladi. Bunda shaxs hislatlarining gumanistik yoki faktorli nazariyalariga ko'ra asoslanishi noo'rin bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har qanday psixodiagnostik metodikalardan psixodiagnostik amaliyotda foydalanishda mazkur metodika asoslanadigan nazariyani bilish shart. Bularsiz psixodiagnost odamlarni tadqiq etish natijalarini tahlil qilish, izoxlash va xulosalar chiqarishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Usarov D.E, Suyarov K.T. Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020y
- 2.Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent.Yangi asr avlodi.2008y
- 3.Ковалева А.И. Носкова О.Г. Моя профессия психолог. МГУ, 2007y
- 4.<http://textshare.tsx.org>